

Shavkat Mirziyoyev Tojikistonga keldi



Prezident Shavkat Mirziyoyev Shanxay hamkorlik tashkiloti sammitida ishtirok etish uchun Dushanbe shahriga keldi.

Davlatimiz rahbarini Tojikiston Bosh vaziri Qohir Rasulzoda va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

17-sentabr kuni bu yerda Shanxay hamkorlik tashkiloti sammiti bo'lib o'tadi.

O'zbekiston Shanxay hamkorlik tashkilotining asoschi davlatlaridan biri. 2001-yilda tuzilgan mazkur tashkilotga bugungi kunda sakkizta mamlakat - Hindiston, Qozog'iston, Xitoy, Qirg'iziston, Pokiston, Rossiya, Tojikiston va O'zbekiston a'zo.

O'tgan 20 yilda tashkilot xalqaro doirada nufuzli tuzilmaga aylandi. Bugun ShHT makoni dunyo aholisining qariyb yarmini birlashtirgan, boy tabiiy resurslar, ilg'or texnologiyalar va ulkan iste'mol bozoriga ega.

O'zbekiston ShHTga savdo-iqtisodiyot, transport va madaniy-gumanitar sohalarda ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, mintaqaviy xavf-xatarlar va transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashishning muhim vositasi sifatida qaraydi.

Mamlakatimiz tashkilot doirasidagi hamkorlikda faol ishtirok etib kelmoqda. Davlatimiz rahbarining tashabbuslari hamkorlik ko'lamini kengaytirish va natijadorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz bugunning o'zida Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Eron Islom Respublikasi Prezidenti Ibrohim Raisiy va Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Imron Xon bilan uchrashuvlar o'tkazadi.





Manba